

### XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH OMILLARI

*Istamova Muhabbat Isroilovna*

*Iqtisodiyot va servis instituti "Servis" kafedrasida stajyor assistenti*

O'zbekistonda Respublikasi prezidenti tomonidan 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan harakatlar strategiyasining bosh omillaridan biri makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolgan holda sanoatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirishdan iboratdir. Sanoat sohasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uni yanada mustahkamlash boshqa tarmoqlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Ya'ni aylanma mablag'larda zahiralarning va asosiy vositalarda aktivlarning yuqoriligi va shu bilan birga ishlab chiqarish va moliyaviy siklning uzoqligi bilan ahamiyatlidir. Bugungi kunda O'zbekistonda yirik sanoat korxonalarini faoliyati jadal rivojlanmoqda, xususan qayta tashkil etilgan korxonalarda jahon standartlariga o'tish natijasida ishlab chiqarish salohiyati yuqori darajaga ko'tarilmoqda. Xususan, tadbirkorlikni moliyaviy barqarorligiga nazariy yondashuvlar asosida qaralganda korxonaning hisob-kitob ko'rsatkichlari va koeffitsiyentlarining tahlili korxonaning aktivlarining tarkibi, ulardan foydalanish sifati va moliyalash usullarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, bu kompaniyaning to'lov qobiliyatini, nobarqaror muhitda uning likvidiligi va barqarorligini baholash imkonini beradi. Tahlil natijalariga tayanib, sarmoyadorlar, kreditorlar va kompaniya rahbariyati iqtisodiy vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, samarali diagnostik tadbirkorlikni ishlab chiqishi mumkin. Hisob-kitob koeffitsiyentlari tizimi shakllantirish va ularning mazmunini aniqlash korxonaning moliyaviy resurslari, ularni olish manbalari, tarkibidagi va foydalanishdagi o'zgarishlar bilan bogliq hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda moliya resurslarining tarkibi korxonaning o'zining va qarz mablag'larining o'zaro nisbatida namoyon etilgan bo'lib, asosiy faoliyatdan olinadigan pul mablag'lari, shu jumladan sof foyda, amortizatsiya hamda moliya bozorida olinadigan kreditlar hisobidan shakllantiriladi. Shunday qilib, moliyaviy resurslar iqtisodiy nuqtai nazardan ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlashning asosiy manbalari va vositalari sifatida ishtirok etadi. Korxonaning iqtisodiy faoliyatidagi omillar haqida gap ketganda shuni ta'kidlash lozimki, ular ishlab chiqarish faoliyatining asosiy resurslari sifatida ham, uning natijasiga ta'sir ko'rsatuvchi harakatlantiruvchi kuchlar sifatida ham ishtirok etadi. Boshqacha aytganda, o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra asosiy manbalar, ta'minot vositalari, omillar va moliyaviy resurslar bir-biriga o'xshash rollarni o'ynaydi, shu sababli moliyaviy omillar tizimini moliyaviy resurslar va ular manbalarining yig'indisi sifatida ko'rib chiqamiz.

Tadbirkorlik sohasining moliyaviy omillar, birinchi navbatta ishlab chiqarish funksiyasini bajaradi. Bu moliyaviy resurslarni doimiy tarzda ko'paytirishdan iborat bo'lib, korxonaning sof daromadini ko'paytirishga, uning rentabelligini ko'tarishga ko'maklashadi. Shuningdek o'z

sarmoyasi tarkibida tizimni hosil qiluvchi omil darajasidada ustav sarmoyasi, qo'shimcha va zahira sarmoya, taqsimlanmagan foyda va boshqa zahiralari hisobga olinadi. Hozirgi vaziyatda ustav sarmoyasi moliyaviy resurslarning butun yig'indisi tarkibida o'z mablag'lari tarkibida kichik salmoqqa ega. Bundan tashqari, yangidan tashkillashtirilgan aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari odatda unchalik jozibali bo'lmasligi mumkin. Qo'shimcha sarmoya ustav sarmoyasidan so'ng korxonaning o'z mablag'larining ikkinchi katta pul fondi hisoblanib, u asosiy fondlarni qayta baholash natijasida va emissiya daromadi va g'arazsiz olingan mol-mulk hisobidan shakllantiriladi. Asosiy fondlarni qayta baholash natijasi sifatida qo'shimcha sarmoya iqtisodiyotdagi inflyatsiyaning turli jarayonlarini aks ettiradi. Emissiya daromadi joylashtirilgan aksiyalar (qo'yilgan sarmoya) bozor narxining ularning nominal narxidagi (ularni sotish

xarajatlari chegirma qilingan holda) ortishini aks ettiradi. Ustav sarmoyasi va emissiya daromadining summasi qo'yilgan sarmoyaning butun summasini aks ettiradi. Demak, qo'shimcha sarmoya, agar u emissiya daromadi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan bo'lsa, sanoat korxonalarini moliyaviy ahvolini yaxshilash manbai hisoblanadi. Moliya resurslarining keyingi manbasi bu jadal rivojlanayotgan korxonalar mablag'larining asosiy manbasi hisoblangan daromad. Balansda u «hisobot yilining foydasi» va «o'tgan yillarning ishlatilmagan foydasi» sifatida hamda foyda hisobotidan tashkil etilgan fondlar va zahiralar sifatida qatnashadi. Ayniqsa, sanoat korxonalarining inqirozdan chiqish jarayonida rivojlanish asosan o'z resurslari hisobidan ta'minlangan sharoitda foydaning jamg'armalar manbai sifatidagi ahamiyati ortadi. Jamg'armalarni shakllantirish, tegishli fondlarni tashkil etish va to'ldirish foydani taqsimlashning maqsadli funksiyasi hisoblanadi. Moliyaviy resurslarni to'ldirishning navbatdagi manbasi bo'lib amortizatsiya fondi deyiladi. Amortizatsiya siyosati korxonaga qo'shimcha moliyaviy resurslarni oshirishga ko'maklashadi. Agar jamg'arilgan amortizatsiya fondi aylanma sarmoya sifatida foydalanilsa, eskirgan sarmoya sifatida foydalanilsa, eskirgan sarmoya qiymati bo'yicha qoplanib, aslida esa qoplanmasligi ham mumkin. Bu shundan dalolat berib turibdiki, moliyalash muammosi nafaqat moliyalash manbalarini qidirib topishdan, balki iqtisodiyotning real sektoriga to'gridan-to'g'ri investitsiyalar moliyaviy manbalaridan maqsadsiz ravishda foydalanish amaliyotiga barham berishdan iboratdir. Asosiy fondlarni yangilash manbalarining mavjud emasligi kreditlar bo'yicha foizlarning yuqori stavkalari bilan murakkablashadi, shuning uchun Ushbu turdagi moliyaviy resurslar hisobdan yangi jihozni xarid qilish ko'p hollarda iqtisodiy jihatdan foydasiz bo'lib chiqadi.

Shu munosabat bilan aksariyat sanoat korxonalarida moliyaviy dastak (qarz mablag'laridan foydalangan holda foydani va o'z rentabelligini oshirish imkoniyati) dan foydalanish imkoniyati qisqargan. Moliyaviy dastak samarasi aredit uchun to'lovga qaraganda ko'proq miqdordagi foydani olish maqsadida qarz mablag'larini jalb qilish natijasida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, moliyaviy dastakka qarz mablag'larining korxonalar daromadlilikiga qanday ta'sir qilishini, shu bilan birga salbiy ta'sirini ham kiritish mumkin. Shu sababdan ham ushbu moliyaviy omildan foydalanish faqat mamlakat bank tizimidagi vaziyat barqarorlashgan sharoitda foydali bo'lishi mumkin. Sanoat korxonalarini uchun yirik miqdordagi moliyaviy resurslar o'zining qimmatli qog'ozlarini moliyaviy bozorga joylashtirish natijasida olinishi mumkin. Joylashtirish uzoq vaqt davomida yoki muddatli ham, qisqa muddatli ham bo'lishi ehtimoli bor. Uzoq muddatga moliyalash deganda boshqa korxonalar (AJ, qo'shma va sho'ba korxonalar) ning ustav fondiga ulushlari qiymati, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni xarid qilish, qarz berish, ya'ni muddati bir yildan ortiq bo'lgan har xil moliyaviy qo'yilmalar nazarda tutiladi. Qisqa muddatli g'aznachilik majburiyatlari, obligatsiyalar va qimmatli qog'ozlar, qarzlilar, tijorat kreditlari. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi kredit shakliga qaraganda katta miqdordagi moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatini beradi. Qimmatli qog'ozlar chiqarish hamda ularning muomalada bo'lishi vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini korxonalar aylanma daromadiga jalb qilish imkoniyatini sezilarli tarzda kengaytiradi. Qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan foydalar, kredit resurslaridan farqli o'laroq ancha arzon va ulardan investitsiyalar (korxonani tashkil etish, qayta tiklash yoki kengaytirishdagi kapital qo'yilmalar) uchun foydalanish ayni maqsadga muvofiqdir. Moliyaviy omil sifatida investitsion loyihalarni joriy etishni ham keltirish mumkin. Loyihaviy moliyalashni investitsiya loyihasining menejmenti bilan bog'liq chora-tadbirlar majmuasi sifatida tavsiflash mumkin. Hozirgi vaziyatda loyihaviy moliyalash texnologiyasidan foydalanishda shuni hisobga olish joizki, aksariyat sanoat korxonalarini passivida katta miqdordagi kreditorlik qarzlilarining mavjudligi va o'z ehtiyojlarini moliyalash uchun mablag'larining yetishmasligi kabi salbiy holatlar bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda inqirozdan chiqishning eng qulay usullari quyidagicha: bosh korxonadan balansga yuk bo'lib turgan keraksiz aktivlarni sotish

orqali barcha qarzlardan tozalangan yangi korxonalar (masalan, ijtimoiy soha korxonalari, ko'chmas mulk obyektlari va h.k.) tuziladi va unga barcha zarur aktivlar yangilanadi. Banklarning (tovar va pul) kreditlar va sarmoyadorlarning (pul yoki natural ifodadagi) badallari ham shu yerda jamlanadi. Mazkur korxonada tashqi kreditorlar va sarmoyadorlarni jalb qilgan holda investisiya loyihalari amalga oshiriladi. Yuqorida keltirilgan tahlillar quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Moliyaviy omillar -bu moliyaviy resurslar manbalarining yig'indisi bo'lib, ularni samarali tashkil qilish foydani, rentabellikni sarmoyaning va umuman korxonaning qiymatini oshirish yo'li bilan barqarorlikka ta'sir ko'rsatadi;

2. Hozirgi sharoitda sanoat korxonalari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar tizimi korxonalar maqsadlari va vazifalarini amalga oshirishga ko'maklashgan holda moliyaviy resurslarni takror ishlab chiqarish va ko'paytirishga yordam berish kerak;

3. Moliyaviy omillarning samarali tizimini tashkil etish, sanoat korxonalarining sarmoya tarkibini maqbullashtirish, o'z moliyaviy resurslarini, investitsiya omillarini rivojlantirish yordamida daromadlar va jamg'armalarni taqsimlash hamda qayta taqsimlash layoqatini nazarda tutadi. Bizga ma'lumki mamlakatimiz va uning hududlarida yanada qulay biznes-muhit yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish va bu borada ishonchli kafolatlarni ta'minlash, tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, davlatning boshqaruv funksiyalari va ruxsat beruvchi normalarni qisqartirish, byurokratik to'siq va g'ovlarni olib tashlash, kichik biznes subektlarining moliya-kredit va xomashyo resurslaridan, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan kengfoydalanishini ta'minlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tatbiq etish imkoniyatlari yaratib berilgan. Davlat va nazorat organlarining tadbirkorlik subyektlari moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin qisqartirilgan Tadbirkorlikni tashkil qilish hamda kichik korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish tartib-qoidalarini yanada soddalashtirilgan.